

AXBOROT XATI

Hurmatli talabalar va yosh tadqiqotchilar!

Chirchiq davlat pedagogika universitetida BMT tomonidan qabul qilingan “2030 yilgacha bo‘lgan davrda Barqaror rivojlanish maqsadlari (BRM)”ni ta’lim va ilm-fan jarayoniga tatbiq etish, talabalarning ilmiy salohiyatini oshirish hamda xalqaro ilmiy makonda o‘z o‘rinlarini topishlarini qo‘llab-quvvatlash maqsadida **“Barqaror rivojlanish – kelajak poydevori”** mavzusidagi **eng yaxshi chop etilgan ilmiy maqolalar** tanlovini e’lon qiladi.

1. Tanlovning maqsadi

Talabalarda barqaror rivojlanish maqsadlariga nisbatan daxldorlik hissini shakllantirish, ularni yuqori impakt-faktorli xalqaro jurnallarda maqola chop etishga yo‘naltirish hamda ilmiy natijalarni xalqaro miqyosda indeksatsiya qilish ko‘nikmalarini rag‘batlantirish.

2. Tanlov yo‘nalishlari

Tanlovga BMTning 17 ta barqaror rivojlanish maqsadidan biriga bag‘ishlangan va chop etilgan maqolalar qabul qilinadi:

1. *Qashshoqlikni yo‘q qilish - aholi farovonligi va ijtimoiy himoya.*
2. *Ochlikni tugatish - oziq-ovqat xavfsizligi va barqaror qishloq xo‘jaligi.*
3. *Yaxshi sog‘liq va farovonlik - sog‘lom turmush tarzi va tibbiy madaniyat.*
4. *Sifatli ta’lim - pedagogik innovatsiyalar va ta’lim transformatsiyasi.*
5. *Gender tengligi - xotin-qizlarning huquqlari va imkoniyatlari.*
6. *Toza suv va sanitariya - suv resurslarini oqilona boshqarish.*
7. *Arzon va toza energiya - energiya samaradorligi va qayta tiklanuvchi manbalar.*
8. *Munosib ish joylari va iqtisodiy o‘rinish - bandlik va barqaror iqtisodiyot.*
9. *Sanoat, innovatsiya va infratuzilma - raqamli texnologiyalar va sanoat.*
10. *Tengsizlikni kamaytirish - jamiyatda ijtimoiy va iqtisodiy adolat.*
11. *Barqaror shaharlar va aholi punktlari - xavfsiz va yashil shaharlar.*
12. *Mas‘uliyatli iste‘mol va ishlab chiqarish - resurs tejamkorligi.*
13. *Iqlim o‘zgarishiga qarshi kurash - ekologik barqarorlik va iqlim muhofazasi.*
14. *Dengiz ekotizimlarini asrash - suv osti dunyosi va resurslari.*
15. *Quruqlikdagi ekotizimlarni asrash - bioxilma-xillik va o‘rmonlar muhofazasi.*
16. *Tinchlik, adolat va samarali boshqaruv - huquq va kuchli institutlar.*

17. Barqaror rivojlanish yoʻlidagi hamkorlik - global va milliy sheriklik.

3. Ishtirok etish shartlari va maqolaga qoʻyiladigan talablar

Tanlovda ishtirok etish uchun maqolalar quyidagi xalqaro standartlarga javob berishi va allaqachon chop etilgan boʻlishi shart:

Indeksatsiya talabi. Maqola Google Scholar xalqaro ilmiy tizimida indeksatsiya qilingan boʻlishi lozim.

Nufuz talabi. Maqola yuqori impakt-faktorli (Impact Factor) xalqaro ilmiy jurnallarda nashr etilgan boʻlishi kerak.

Tuzilishi talabi. Maqola IMRAD (Kirish, Metodologiya, Natijalar, Muhokama) talablari asosida yozilgan boʻlishi shart.

Adabiyotlar talabi. Kamida 10 ta manba (jumladan, 3 ta xorijiy manba) boʻlishi shart.

4. Gʻoliblarni ragʻbatlantirish

Tanlov natijalariga koʻra, har bir maqsad (yoʻnalish) boʻyicha alohida gʻoliblar aniqlanadi:

1-oʻrin: 300 000 soʻm pul mukofoti;

2-oʻrin: 200 000 soʻm pul mukofoti;

3-oʻrin: 100 000 soʻm pul mukofoti.

Shuningdek, tanlovda eng yuqori natija koʻrsatgan talabalar uchun alohida **“Eng yaxshi maqola”** nominatsiyalari taʼsis etilgan boʻlib, ularning gʻoliblari **qimmatbaho sovgʻalar** bilan taqdirlanadi.

5. Muddatlar va taqdim etish tartibi

Maqolalarni qabul qilishning oxirgi muddati: **10.06.2026 y.**

Saralash va baholash jarayoni: **15.06.2026 y.**

Gʻoliblarni taqdirlash: **30.06.2026 y.**

Materiallar (maqolaning PDF nusxasi va Google Scholar havolasi) elektron shaklda **Telegram manzili @Oxunjon5303**] orqali qabul qilinadi. Fayl nomi: **«Talaba_FISh_BRM_Maqola»**.

Ilm-fan yoʻlidagi yutuqlaringizni xalqaro darajada mustahkamlang!

Tashkiliy qoʻmita: Chirchiq davlat pedagogika universiteti Ilmiy boʻlimi, Yoshlar akademiyasi, Yoshlar bilan ishlash va maʼnaviyat-maʼrifat boʻlimi, Iqtidorli talabalar bilan ishlash boʻlimi, Taʼlim sifatini taʼminlash boʻlimi.